



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 20 - yanvar

22-10-0-Q/24

Toshkent viloyati hokimiligi

Viloyatda “Maxgreen” MCHJ tomonidan paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 14-sonli farmoni hamda 2023 h-yil 12 h-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 205-sonli farmonlariga asosan, qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish, paxta-to‘qimachilik klasterlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, tarmoqda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 19-yanvardagi 01/23-08/38-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining Bekobod tumanida “Namangan Paxta Teks” MCHJ ta’sischiligida “Maxgreen” MCHJ tomonidan paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 2024-yil 19-yanvardagi 01/23-08/38-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan o‘rnatilgan tartibga ko‘ra:

a) paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyati Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan kelishgan holda viloyat hokimining qarori bilan tashkil etilishi;

b) paxta-to‘qimachilik klasterini tashkil qilish bo‘yicha qarorga asosan Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyat hokimligi va paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha talabgor o‘rtasida uch tomonlama bitim tuzilishi;

v) bir hududda barcha paxta-to‘qimachilik klasterlariga fermer xo‘jaliklari bilan shartnoma asosida faoliyat yuritishiga va fermer xo‘jaliklariga ushbu klasterlar bilan

paxta xom ashyosini yetkazib berish bo'yicha ixtiyoriy ravishda fyuchers shartnomalarini tuzishga ruxsat berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari X.Niyozov, viloyat hokimi o'rinbosari N.Sharipov, viloyat hokimning mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha yordamchisi D.Madirimov "Maxgreen" MCHJ tomonidan klaster faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risida uch tomonlama bitim loyihasini ishlab chiqib, 3 kun muddatda taklif kiritсин.

4. "Maxgreen" MCHJ quyidagi majburiyatlarga ega:

biznes-reja va bitim parametrlariga rioya qilish hamda bir yilda kamida bir marta hisobotlarni Vazirlikka hamda viloyat hokimligiga taqdim etish;

ajratilgan imtiyozli moliyaviy resurslardan tasdiqlangan agrotexnologik xaritaga muvofiq foydalanish;

paxta xom ashyosi yetishtirishdan boshlab uni tayyor mahsulot sifatida sotishgacha bo'lgan ishlab chiqarishning uzluksiz zanjirini, shu jumladan kooperatsiya asosida tashkil etish hamda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotish;

raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

"O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasi bilan paxta-to'qimachilik klasteri o'rtasida tuziladigan a'zolik shartnomalari doirasida olingan majburiyatni bajarish hamda a'zolik badallarini belgilangan muddatlarda to'lab borish;

paxta yetishtirishda mexanizatsiya darajasini oshirib borish hamda suv tejaydigan zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etish;

o'zi faoliyat yuritayotgan hududdagi paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar bilan paxta xom ashyosini sotib olish bo'yicha shartnoma tuzish;

paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar bilan tuzilgan shartnoma talablariga qat'iy rioya etish.

5. Belgilansinki:

klasterlar va boshqa to'qimachilik korxonalari tomonidan paxta xom ashyosi to'liq elektron tarozi orqali qabul qilinadi;

paxta xom ashyosi uni yig'ish, tashish, quritish, saqlash va birlamchi qayta ishlashga qo'yiladigan yong'in xavfsizligi talablariga javob beradigan hamda elektron tarozi va texnik jihatdan malakaliligi ma'qullangan sinov laboratoriyasi bilan jihozlangan omborlarda saqlanishi shart;

qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lari, paxta, texnik chigit va qayta ishlashdan olingan mahsulotlarning muvofiqligini baholash organlarida texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash hamda metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan davlat nazorati amalga oshiriladi;

klaster va boshqa to‘qimachilik korxonalari tomonidan xarid qilingan paxta xom ashyosi o‘zlarining belgilangan tartibda texnik jihatdan malakaliligi ma’qullangan laboratoriyasida yoki shu talablarga javob beradigan boshqa laboratoriyalarda tahlil qilinib qabul qilinadi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Niyozov zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev